



ALI QUSHCHI VA UNING ILMIY MEROSI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19213059>

Shakarova Azizabonu Saydulla qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk astronom Samarqand akademiyasining asoschisi Mirzo Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchining Ulug'bek xazinasi ya'ni buyuk kutubxonaning asosiy qismini saqlab qolganligi to'g'risida va bu kutubxonani mohirlik ila yashirganligi haqida ma'lumotlar o'rganiladi. Shuningdek, Ali Qushchi bu kutubxonani yashirish uchun qancha izlanishlar olib borganligi, uni kelajak avlodga xavfsiz holatda yetib borishi uchun mohirlik ila harakat qilganligi va kutubxona "xaritasi"ni qay holatda namoyon qilganligi tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: *Ulug'bek durlari, Hazrati Bashir, Ajdar g'ori, Kitob at-fatxiya-g'alaba kitobi, Risola at-fatxiya, Padarkush tog'i.*

Аннотация: В данной статье рассматривается информация об Али Куше, ученике основателя Самаркандской академии, великого астронома Мирзо Улугбека, который сохранил основную часть сокровищ Улугбека, а именно великую библиотеку, и как искусно он её спрятал. Также анализируется, сколько исследований провел Али Куш, чтобы спрятать библиотеку, как умело он работал над тем, чтобы она дошла до будущих поколений в безопасном состоянии, и как он представил «карту» библиотеки.

Ключевые слова: *могилы Улугбека, Хазрат Башир, Пещера Дракона, Книга ат-Фатхия-Книга Победы, Рисала ат-Фатхия, гора Падаркуш.*

Abstract: This article examines the information about Ali Kushchi, a disciple of the founder of the Samarkand Academy, the great astronomer Mirzo Ulugbek, who preserved the main part of the Ulugbek treasure, that is, the great library, and how he skillfully hid this library. It also analyzes how much research Ali Kushchi conducted to hide this library, how skillfully he worked to ensure that it reached future generations in a safe state, and how he presented the "map" of the library.

Keywords: *Ulugbek's tombs, Hazrat Bashir, Dragon Cave, Kitab at-Fathiya-Book of Victory, Risala at-Fathiya, Mount Padarkush*



Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragoni 40 yil davomida toj-u taxtini boshqarar ekan, u umri davomida nafaqat mamlakatni adolat bilan boshqardi balki ilm-fan sohasiga ham butun bir hayotini tikdi. U humkronligi davrida Samarqand akademiyasiga asos soldi, bobosi Amir Temurdan qolib kelgan nodir kutubxonani saqladi va yanada boyitdi, atrofida buyuk olim-u fuzalolarni to‘pladi. Amir Temurdan qolib kelayotgan kutubxona orasida har bir mamlakatdan eng sara qo‘lyozmalar jamlangan edi. Buyuk Sohibqiron qaysi davlatdi zabt etar ekan ekan, u davlatning boyliklaridan ham ko‘ra ko‘proq madaniyatiga qiziqar edi va o‘zi bilan nodir durdonalarni Samarqand zaminiga olib qaytar edi. Mirzo Ulug‘bek esa bu qo‘lyozmalarni ko‘z qorachig‘idek asradi, shogirdlari bilan birga ularni o‘rgandi, ularga sharhlar bitdi.

Ulug‘bek rasadxonasining uchinchi oshiyonida ulkan bir kutubxona tashkil etilgan edi. Xonaning to‘ridagi chetlariga tilla tasmalar qoqilgan javonlarni Movarounnahr fozillarining kitoblari-yu, nodir qo‘lyozmalari egallagan bo‘lib, bu kitoblaru qo‘lyozmalarning har biri alohida ishlov berilgan yashil va firuzarang charm bilan jildlangan. Har bir jildga muallifning muborak ismi shariflari zarxal harflar bilan bitilganki, ular taratgan yorug‘lik mana, hozirgacha so‘nmas yulduzlarday yaltirab turibdi. Har safar mavlono Qozizoda Rumiy bu ilm maskaniga kirib, bu javon oldida to‘xtaganida, kitoblarga qo‘l uzatishdan oldin ko‘zlarini yumib,

lablari pichirlab, duo o‘qir, so‘ng tanlagan kitobini olib qosh-ko‘zlariga surtar, labiga bosar, shundan keyingina kitobni ochib, mutolaaga kirishar edi. Ulug‘ ustoz o‘zigina emas, bu dargohga qadam qo‘ygan har bir talabadan shunday qilishni talab etardi. Kutubxonaning o‘ng tomonida uch qator qora charm jildlik, og‘ir qalin kitoblar mavjud bo‘lib, bu kitoblar olis Qohiradan keltirilgan edi. Sohibqiron Amir Temur sulton Boyazid Yeldirimga qarshi yurish qilganida shu tomonlardan ushbu kitoblarni olib kelgan, Mirzo Ulug‘bek esa Misr-u Qohiradan, Bog‘dod va Damashq madrasalaridan fozillarni chaqirtirib, bu kitob va nodir qo‘lyozmalarning mag‘zini chaqtirish, ularni sharh ettirish niyatida bo‘lgan⁵⁵. Lekin bunday sharaflı yumush Ulug‘bekka nasib etmadi. o‘z farzandi tomonidan ko‘tarilgan “Padarkushlik hanjari” afsuski buyuk astronom hukmdorning umriga zomin bo‘ldi. Mirzo Ulug‘bek umrining so‘nggi onlarida eng yaqin shogirdi Ali Qushchiga ushbu kutubxonani saqlab qolishni vasiyat qildi. Zeroki, Ulug‘bek o‘zining chin boyligi deb toj-u taxt emas, balki ilm-ma‘rifat yo‘lida qilgan xizmatlari, bitgan asarlari, to‘plagan ilm xazinasini bilar edi. Bu xazina faqatgina Movarounnahr diyoriining emas, butun bashariyatning boyligi edi. Ulug‘bekning vasiyatiga ko‘ra Ali Qushchi bu xazinani bo‘lg‘usi avlod uchun asrab qolmog‘i, ularni Samarqand mulkidan olib chiqib aniq bir joyga yashirishi lozim hisoblangan. Toki

⁵⁵ O.Yoqubov. Ulug‘bek xazinası T: Adabiyot va san‘at nashriyoti. 27-b.



dorulomon kunlar kelsa, kelajak avlod ushbu javohirlardan ilm yo'lida foydalanmog'i kerak edi. Ulug'bek vafotidan so'ng Ali Qushchi bunday buyuk xazinani qanday qilib markazdan olib chiqib ketish, uni qayerga yashirish haqida juda ko'p bosh qotirgan. Kitoblar shu qadar ko'p bo'lganki, ularni o'n-o'n besh sandiq uyoqda tursin, yuzta sandiqqa ham sig'dirib bo'lmas edi. Ulug'bek esa bu noyob asarlarning ichidan eng nodirlarini olishni vasiyat qilgan. Ali Qushchi ularni saralar ekan qay birini olishni bilmas, har bitta kitob uning ko'zlariga bebaho marvariddek ko'rinardi. Vanihoyat Ali Qushchi kitoblar orasidan ustozni tayinlaganidek eng noyoblarini olib ular uchun maxsus po'lat sandiqlar yasattiradi. Tabiiyki kitoblarni oshkora holatda Rasadxonadan olib chiqib ketishning iloji yo'q edi. Ali Qushchi bu sir haqida noiloj ikki yaqin shogirdiga aytishga majbur bo'ladi, sababi bunday nozik topshiriqni yolg'iz bajara olmasdi. Shunday bir holatda Ali Qushchi yordam so'rab Ulug'bekning eng yaqin ishongan shogirdlari yoniga borganida ular o'ylab ham o'tirmasdan rad javobini berishadi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, biz ishongan insonlar har doim ham biz kutgan yordamni bera olishmaydi. Bunday vaziyat Ali Qushchi uchun nihoyatda og'ir holat edi. Ali Qushchi shogirdlari bilan birgalikda tunda rasadxonaga borib kitoblarni qoplarga soladi va rasadxonaning laximidan ularni yashirin tarzda olib chiqadi. Ali Qushchi tanlab olgan asarlar kutubxonadagi kitob va

qo'lyozmalarning o'ndan biricha ham kelmas, lekin shuning o'ziyoq qirg qopdan oshib ketgandi. Dastlab kitoblarni Ali Qushchi o'z uyida saqlab turadi, biroq sezilib turibdiki bu holat bilan uzoqqa borib bo'lmas edi. Ali Qushchining hayoliga birdan "Ajdar g'ori" kelib qoladi. Mavlono bu g'orni juda ko'p yillar oldin ko'rgan edi. Arxar ovini yaxshi ko'rgan Mirzo Ulug'bek Urgut tog'lariga ovga chiqadi. To'satdan yonidan bir arxar chiqib qocha boshlaydi bu vaqtda yomg'ir ham yog'ayotgan, Mirzo Ulug'bek esa arxarning ortidan quvib ketadi. Ustozidan havotirlangan Ali Qushchi uning ortidan boradi. Mirzo Ulug'bek arxarning ortidan quvib bir g'orga duch keladi. Ali Qushchi bilan birgalikda ular bu g'or ichkarisiga kirishadi. g'or chindan ham cheksiz bo'lib, u sirli laximday ungur bo'lib toqqa kirib ketar edi. o'n besh-yigirma qadam yurishgach yo'lda yana bir ungur paydo bo'lib, pastda yana bir g'or paydo bo'ladi, bu g'or birinchisidan ham keng va baland bo'lib, devorlari Xitoy chinnisiday silliq, oppoq marmar bilan qoplangan edi. Lekin eng qizig'i-bu g'orning oxirida yana bir qorong'u tuynuk ko'rinar, yana sal yurilsa uchinchi g'or paydo bo'lar edi⁵⁶. Ushbu g'or hali hech bir insonga ayon bo'lmagan Ali Qushchi uchun eng to'g'ri tanlov edi. Ali Qushchi kitoblarni to'rt tuyaning har biriga to'rttadan o'n olti sandiq ortib, ustiga quruq pichan bostirib shahardan olib chiqib ketadi va xazinani shogirdi bilan birga Ajdar g'origa olib

⁵⁶ O.Yoqubov. Ulug'bek xazinasi T: Adabiyot va san'at nashriyoti. 104-b.



boradi. “Agar Xaq taolo inoyat qilib, taxtda Mirzo Ulug‘bek o‘zi qolsa, nur ustiga a‘lo nur. Yo‘q, taxtni shahzoda muqim egallab, ish tanazzulga yuz tutsa... yaxshi zamonlar kelguncha bu kitoblar ona quchog‘ida yotgan boladay xotirjam yotadi,”-deya o‘ylar edi Mavlono. Mirzo Ulug‘bek farzandi tomonidan Haj safariga yo‘l olayotgan vaqtda Ali Qushchi ustoz bilan vidolashish uchun ortidan boradi va bu ularning so‘nggi bora uchrashishi edi. Mirzo Ulug‘bek og‘ir bir ahvolda bo‘lsa ham Ali Qushchidan kutubxona haqida so‘raydi. Ali Qushchi xazina behavotir joy - Ajdar g‘orida ekanini aytadi. Mirzo Ulug‘bek shogirdining aqliga tasannolar aytib undan juda mamnun bo‘ladi.

Shuningdek, yan bir boshqa manbalarda boshqacha ma‘lumotlar uchraydi. Dushanbe shahridagi Firdavsiy nomli kutubxonada Ali Qushchining “Sharhi Ziji Ulug‘bek” (“Ulug‘bek “Zij”iga sharx”) asarining fors tilidagi qo‘lyozmasining oxirgi varaqlariga arab tilida yozilgan to‘rt qator jumla bitilgan⁵⁷.

Lav jaro kalamulo fiy lisonik,
Fa inna lulua Ulug‘bek fiy jaybik.
Lavkana kitobul fatxiya fiy zaxrik,
Ya xalqiy, miftak ul-tafakkur fiy yadik.

Bu ash‘orning o‘zbekcha tarjimasi:
Allohning kalomi tilingda bo‘lsa,
Ulug‘bek durlari qo‘yningda elim.
g‘alaba kitobi belingda bo‘lsa,
Tafakkur kaliti qo‘lingda elim.

Ali Qushchi aslida shoir bo‘lmagan lekin bu to‘rtliklarda “maxfiy sir” yashiringandir. “Allohning kalomi tilingda bo‘lsa” ushbu satrlar bu elga odamlar qalbida iymon, diyonat ungan, tinch va osoyishta davrlar kelishiga ishoratdir. “Ulug‘bek durlari” deganda mol-u dunyo emas, ilmiy meros, kitoblar nazarda tutilgan. Maqsadga kuch va jaholat yo‘li bilan emas, balki aql va tafakkur yo‘li bilan erishishga uringan alloma uzoq yillik bosh qotirishlardan so‘ng nihoyat masalaning yechimini topishga erishgan. U bir kun kelib, urfon dovonlarini egallagan kelajak avlodlar yozgan asarlarini qunt bilan tadqiq qilishiga, ulardagi mantiqni anglab yetishiga umid qilgan. Shu sababli yashirilgan kutubxona “kaliti”ni asarlari qa‘riga shunday singdirganki, tafakkur bulog‘idan suv ichgan farzandlar buni sezmasliklari mumkin emasdi. She‘rning uchinchi qatoridagi “Kitob at-fatxiya” - “g‘alaba kitobi” jumlasida Ali Qushchi o‘zining “Risola at-fatxiya” asariga ishora qilgan⁵⁸. Astronomiyaga bag‘ishlangan ushbu kitobni alloma umrining oxirida - 1473 yilda Istanbulda yozgan. Oradan bir yil o‘tar-o‘tmay bu dunyo bilan vidolashgan olim balki o‘sha kezda Ulug‘bek kutubxonasi sirini kelajak avlodga yetkazish uchun o‘ziga berilgan oxirgi imkon ekanini sezgandir. Ushbu asarning qo‘lyozmalari Istambuldagi Ayo Sofiya kutubxonasida, Mashxaddagi Imom Rizo kutubxonasida, Tehron, Kembrij, Dehli universiteti

⁵⁷ Ali Qushchi. Sharhi Ziji Ulug‘bek. – Toshkent: Fan, 1994. – 49-b.

⁵⁸ K.Sindarov. Temuriylar kutubxonasining siri. T: Yangi asr avlodi - 2019. 303-bet.



kutubxonalarid, Britaniya muzeyida va Germaniya davlat kutubxonasida saqlanar edi. Asarning 49-betida asosiy matnga uyqash bo'lmagan va o'zgacha usulda qalinroq qilib bitilgan arabcha jumlaning tarjimasi shunday ma'noni anglatadi:

Do'stim, chaqa olsang so'zim
ma'nosini,

Topajaksang durlarning
durdonasini.

Firdavsmonad bo'ylab solsang
Keshga yo'l,

Ulkan qoya qalbiga sol bir qo'l.

Ushbu sehrli jumlar harakat xaritasini chizib berayotganday, go'yo maxfiy va sirli voqeadan xabardor qilayotgandek tuyuladi. "So'zlarim ma'nosini chaqa olsang ... durdona topasan! Firdavsmonand deganda Samarqand tushunilgan. U yerdan Keshga qarab yurish lozim. O'rtada dovon ... Tik qoyalar qalbiga qo'l solish zarurligini uqtirayabdi ... Tog'da nima ko'p qoya ko'p. Ulkan qoyalar ham kam emas. Demak bu "Sirli xaritaning" yana bir davomi bo'lishi kerak. To'rtlikning tagida "Risola al-Muhammadiya fi-l-xisob" degan yozuv turardi. E'tibor qilmagan odam she'rni go'yoki shu asardan olingan parcha deb o'ylashi tabiiy edi. Biroq Ali Qushchining bu risolasi xisob haqida bo'lib, nazmga hech qanday aloqasi yo'q edi. Demak, harakat xaritasining davomi ushbu kitobda ekanligiga yo'l ko'rsatilmoqda. Qayd etilgan kitobning ikki nusxasi bo'lib, bir nusxasi Ayo Sofiya kutubxonasida saqlanar edi. Lekin bu yerdagi nusxadan kerakli jumlar

topilmaydi. Asarning yana bir nusxasi Gollandiyaning Leyden universiteti kutubxonasida saqlanardi. Asar arab tilida yozilgan bo'lib, keyinchalik Ali Qushchining o'zi uni forsga o'giran edi⁵⁹. Ehtimol bu yumush ham bekorga qilinmaganligi ko'rinib turibdi. Qo'lyozmaning 49-betidagi forsha bitik bejizki xaritaning davomi edi:

Ro'zu shab on goh ki shod barobar,
Xurshid bo zamin shod xamdame
asror,

Soye tal baland shod
Savore ushture kabod,
Roni gar muammo omode gardod,
Roxe ommid koshode gardod ...
o'zbekchada ash'or bunday
jaranglaydi:

Kun bilan tun tenglashgan dam,
Oftob yerla sirlashgan dam,
Baland cho'qqi soyasi ul -
Ko'k tuyaga mingashgan dam.
Sursang, jumboq yechiladi,
Umid yo'ling ochiladi ...

"Kun bilan tun tenglashgan dam ... bu yo 21-mart yoki 22-sentabr kunlari ... oftob yer-la sirlashgan dam ... quyosh yerga tushgan payt ya'ni kunbotar payti. Baland cho'qqi soyasi ko'k tuyaga mingashgan dam bu - eng baland cho'qqining soyasi tushadigan taraf. Demak, u yoqda tuyaga o'xshash nimadir bo'lishi kerak. "Sursang jumboq yechiladi" bunda nimanidir surib o'rnidan qo'zg'atish lozimligi uqtirilmoqda. Hammasi ravshan! Avvalo Samarqand va

⁵⁹K.Sindarov. Temuriylar kutubxonasining siri. T: Yangi asr avlodi - 2019. 305-bet.



Shahrisabz orasidagi tog'ning eng baland cho'qqisini topish zarur edi. Bu Padarkush cho'qqisi. 21-mart kuni choshgohga yaqin quyosh ufqqa bosh qo'ygan mahal Padarkushdagi tikroq qoyaning beliga borib to'xtaydi. Tuyaning o'rkachini eslatuvchi bu qoya tabiiyki ko'zlarga sirlidek ko'rinadi. Tuyaning o'rkachini eslatuvchi katta harsang tosh tagi kovlanib surilsa, harsangning ostki qismi o'yilib, unga marmar toshdan yasalgan pona tiqib qo'yilgani ko'rinadi. Pona tiqilgan joyidan olinsa, harsang xuddi muallaq turgandek chayqalib qoladi. Endi bu harsangni surish oson va g'orning og'zi ko'rinadi. Kirish yo'li torgina bo'lsada, g'orning ichki yo'lagi kengaya boshlaydi. g'orning to'riga boravergach, g'orning chap burchagina pastqamgina, ko'rinishidan anchagina qalin eshik paydo bo'ladi. Eshik sof granitdan yoki toza oq marmardan yasalganligi uchun oradan shuncha vaqt o'tsada hamon yaltirab turibdi. Zich yopilgan eshik ochilgach, ichkarida yana bir xona borligiga guvoh bo'lamiz. Xujra kattagina edi. To'rda qator qilib terib qo'yilgan xumlar, ularning og'zi qandaydir og'ir qopqoq bilan yopilgan edi. Qopqoq ochib ko'rilgach, xumlarning ichidan yaltillab turgan tillalar ko'zga tashlanadi. Endi esa asosiy g'orni topish kerak. Chap tomondagi devorga yaqinlashgach, yana bir eshik izi ko'rinadi. Eshik ochilganidan so'ng, pastga qarab ketgan uzun yo'lak ko'rinadi. Bu joy tabiiy g'orga o'xshamas, devorlardagi, zinalardagi ishlovlarga qarab, bu inshoot inson qo'li

bilan yaratilganligiga amin bo'lamiz. Bu ham Ali Qushchining bir tafakkuri edi. Tahminan yuzta zinadan pastlab, yana boyagidek eshik duch keladi. Ushbu xujra yuqoridagi joylarga qaraganda quruq va salqin edi. Ikki yon bo'ylab ketgan uzun tokchalarda bir hil hajmdagi qoplar terib qo'yilgan. Ushbu qoplar pishiq teridan tikilgan bo'lib, biron joyida chok izi yoki tikish o'rni topilmaydi. Dono bobomiz havo o'tkazmasligi uchun shunday qilgan edi. Qoplar pichoq yordamida ochilganidan so'ng, ularning ichidan sanoqsiz kitoblar-u qo'lqozmalar chiqar edi⁶⁰. Ha, bu o'sha Ulug'bek durdonasi edi! Qo'lyozmalar shuncha yillar davomida hech bir talofatsiz, o'z holicha yap-yangi saqlanardi. Shuncha texnologiyalardan so'ng Ali Qushchining zehniga qancha maqtoqlar aytsak ham kam. Ali Qushchi ustoz vafotidan keyin 6-7 yil Xazrati Bashir qishlog'ida, keyinchalik Samarqandda yashab, ijod qilgan. Agar kutubxona saroyning yer osti yo'laklariga yashirilganida hokimiyat almasha, u yerga Ali Qushchining o'zi ham qadam bosolmay qolgan bo'lardi. Olim uchun kutubxona fondi suv va havoday zarur ekanligi inobatga olinsa, masalaning mohiyatini anglash qiyin bo'lmaydi. Boshqa tomondan erkin bo'lish imkoni bo'lmagan joydagi kitoblarning holidan xabardor bo'lib turish qiyin kechishini ham unutmashlik kerak. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Ali Qushchining darvesh kiyimida tun

⁶⁰ K.Sindarov. Temuriylar kutubxonasining siri. T: Yangi asr avlodi - 2019. 311-bet.



qorong'usida kutubxonani Samarqanddan karvonda To'y Temur orqali Shahar dovoni osha Padarkush tog'iga olib borib, oldindan tayyorlab qo'yilgan g'orga yashirganligi haqida guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu xulosalarning haqiqatga yaqinligi yana quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin: Birinchidan, Ali Qushchi u joylarni yaxshi bilgan. O'zi Samarqandda voyaga yetgan bo'lsa-da, kelib chiqishi o'sha yoqdan bo'lganligi unga ko'zlagan ishini amalga oshirishda qo'l kelishi tabiiy edi. Ikkinchidan, Amir Temurga ham, Mirzo Ulug'bekka ham bu joylar besh qo'lday tanish bo'lgan. Ular janubga asosan shu yo'l orqali o'tgan. Yurishlaridan zafarli qaytganida ularni ahli Samarqand shu yerda kutib olgan. Uchinchidan, bu joy kutubxonani odamlar ko'zidan yiroq, bexatar va ishonchli saqlanishi uchun har tomonlama qulay. Bundan tashqari Ali Qushchi yoki uning ishonchli odami zarurat bo'lganda kutubxona fondlaridan foydalanish, kitoblarning saqlanishini vaqti-vaqti bilan nazorat qilib borish imkoniga ham ega bo'lgan. Ustozining vasiyatini chin dildan ado etgan buyuk olim shu maqsadda 7 yilga yaqin kutubxona yashirilgan g'orga yaqin joyda yashaganligi ham bejiz emas. Shu davrda u kutubxonaning saqlanishini kuzatib turgan. Qo'lyozmalarning chirib ketmasligi oldini olish choralarini ko'rgan. Tegishli shart-sharoitlar hozirlagan. Kutubxonaning yangi joyga moslashishini ta'minlagan. Va tabiiyki, undagi kitoblarni saralagan, ulardan ilmiy izlanishlarida foydalangan, eng zarur qo'llanma va asarlarni tanlab olgan va

keyinchalik ularni o'zi bilan Turkiyaga olib ketgan. Ali Qushchi tahminan 1456-yillarga qadar Hazrati Bashir qishlog'ida yashagan. Shundan so'ng u yana tahminan 16 yil Turon zaminida yashab, ijod qilgan. 1472-yilda 70 yoshga yaqinlashganda Xaj safariga otlangan. Ustozi vasiyatiga oxirigacha sodiq qolgan Ali Qushchi mamlakatda hokimiyatning tez-tez almashib turishidan havotirda bo'lgan. Taxt tepasiga qisqa muddat ezgu kuchlar kelsa-da, sal o'tmay ularni yovuz kuchlar mahv etgan. Toju taxt uchun qirg'inbarot urushlar davom etavergan. Bunday sharoitda kutubxonani oshkor etib, uni joyiga ko'chirib kelish uning taqdirini xatarga qo'yish bilan barobar edi. Buni yaxshi anglagan Ali Qushchi kutishga qaror qiladi va yigirma yildan ortiq shu orzu bilan yashaydi. Ammo bu davrda Temuriyodalar o'rtasida kechayotgan taxt uchun kurashlar to'xtamaydi. Mamlakatda yuz berayotgan siyosiy jarayonlardan to'liq xabardorligi uni tavakkal qilishiga yo'l bermaydi.

Bunday nodir kutubxonani topish uchun yangi davrga kelib ham bir necha izlanishlar olib borilgan. Xususan, ingliz yozuvchisi M.Uolles 1889-yilda kutubxonani qidirish ishlarini olib borgan. Undan oldin yevropalik olimlar Vamberi, Skaylerlar ham bu to'g'risida bosh qotirishgan. Chor Rossiyasi istilosidan so'ng rus olimlari ham bu borada o'zlarini sinab ko'rishgan. Ammo barcha harakatlar zoe ketgan. Balki buyuk ulamolarning duolari vojib bo'lib, kutubxona istiqloq kunlariga qadar o'zini bosqinchi kuchlarga namoyon etmasdan



kelgandir. Buning ustiga Ali Qushchi kutubxonani yashirish uchun boshqacharoq usuldan foydalangan edi. Mavlono Qushchi janoblari kutubxonaning nodonlar qo'liga tushib qolishidan astoydil havotirda bo'lganligi sababli sirli bitik bir joyda - bir manbada emas, balki bir necha manbalarda bo'lib-bo'lib joylashtirgan. Sirli kalit so'zlari aynan kitoblarning 49-sahifalarida namoyon etilishi ham Mirzo Ulug'bekning o'limi 1449-yilda ekanligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Mavlono Ali Qushchi o'ziga yuklatilgan vazifani juda a'lo darajada bajargan edi. Ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mavlono umrining oxirgi qismlarida Haj safarini amalga oshirganini ko'ramiz. Agarda buyuk mutafakkir ustozining vasiyatini tamomila bajo etmaganida uning ko'ngliga Haj safari ham sig'mas edi. Xulosa qilishimiz mumkinki, Ali Qushchi kutubxonani xavfsiz joyga yashirganidan so'ng, bu xazina kelajak avlodga yetib kelishi uchun kutubxonaning o'rnini asarlari orasiga "berkitib" bo'lgan edi. Ko'ngli hotirjam bo'lgach esa bemalol Haj safarini amalga oshirgan. Ali Qushchi Xijriy 879-yil sha'bon oyining yettilamchisida shanba kuni (1474-y. 17-dekabr) olamdan o'tdi. Jasadi Ayyub Sulton qabristoniga olib borib dafn etilgan⁶¹.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mirzo Ulug'bek boshqa ayrim

hukmdorlarga o'xshab butun umrini jang-u jadallar ila mol-u davlat to'plashga sarflamadi. U har bir lahzasini unumli tarzda ilm-fanga bag'ishladi. Umrining so'nggi kunlarida ham yaqin shogirdiga ilmiy merosini asrab qolishni vasiyat qildi. Bu vazifa nihoyatda qaltis bo'lishiga qaramay, Ali Qushchi umrining oxiriga qadar kutubxona dardida yashadi. Uning sir-asrosini asarlari qa'riga berkitdi. Bir qismini o'zi bilan birga Turkiyaga olib ketdi. Kutubxonaning ayrim qismlari hozirgi kunda bir nechta mamlakatlarning kutubxonalarida, muzaylarida saqlanib kelmoqda. Olimlarning fikriga ko'ra "Ulug'bek xazinasi" rostdan ham mavjud bo'lib, u shogirdi tomonidan rasadxonadan olib ketilgan. Hamda Ali Qushchi kutubxonaning sirini asarlarida kalit so'z yoki xarita tarzida ilova qilib ketgan. Qachonki farovon, tinch kunlar kelib, kelajak avlod bu kutubxona sirini topishiga ishongan. Sababi, faqatgina ilmiy, e'tiqodli shaxslargina bu sirning tagiga yeta olishi mumkin edi. Biroq bu kutubxonaning siri haqida haligacha butunlay tagiga yetilmagan bo'lib, uning bir qismi haqida tadqiqotchilar xabardordir.

Demak, Temuriylar kutubxonasi rostdan mavjud bo'lib, bu kutubxona Ulug'bek akademiyasi davrida yanada boyitilgan va uning vafotidan so'ng "taxt da'vogarlarining" g'alayonlari natijasida shogirdlari tomonidan maxfiy joyga yashirilgan.

⁶¹ B.Ahmedov, Mirzo Ulug'bek. Toshkent: "Yozuvchi", 1994. 247-b.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ali Qushchi. Sharh-i Zij-i Ulugh Beg (Ulug‘bek jadvaliga sharh) // O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005.
2. Ali Qushchi. Risola al-fathiya. Tarjimon va so‘zboshi muallifi: A. Ahmedov. – Toshkent: "Fan", 1994.
3. Bo‘riboy Ahmedov. Mirzo Ulug‘bek. Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti, 1994.
4. Odil Yoqubov. Ulug‘bek xazinasini Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti - 1974.
5. Komil Sindarov. Temuriylar kutubxonasining siri. Toshkent: Yangi asr avlodi - 2019.